



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 155 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуювна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуювна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarning samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	



DAVLAT - XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH



Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Biznes boshqaruvi” kafedrasini professori
tursunov-ie64@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7888-8896



Hamroyev G'ayratjon Sultonovich

Qarshi Davlat Texnika Universiteti
“Mintaqaviy iqtisodiyot”
mutaxassisligi mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0000-8679-2325

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tahlili bayon qilingan bo'lib, unda mamlakatimizda oxirgi yillarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari sohalar kesimidagi amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirishning afzallik va kamchiliklari aniqlanib, loyihalar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sheriklik, xususiy investor, moliyaviy loyihalar, moliyaviy risklar, loyihalar samaradorligi, budget samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurash, moliyaviy nazorat, davlat moliyasi.

Abstract: This article presents an analysis of public-private partnership projects implemented in Uzbekistan, which highlights public-private partnership relations implemented in our country in recent years in all sectors of public-private partnership projects. The advantages and disadvantages of implementing public-private partnership projects in our country have also been identified, and proposals and recommendations have been developed to improve the effectiveness of projects.

Key words: Public-private partnership, private investor, financial projects, financial risks, project efficiency, budget efficiency, fight against corruption, financial control, public finances.

Аннотация: В данной статье представлен анализ проектов государственно-частного партнерства, реализованных в Узбекистане, в котором освещаются отношения государственно-частного партнерства, реализованные в нашей стране за последние годы во всех секторах проектов государственно-частного партнерства. Также определены преимущества и недостатки реализации проектов государственно-частного партнерства в нашей стране, разработаны предложения и рекомендации, служащие повышению эффективности проектов.

Ключевые слова: Государственно-частное партнерство, частный инвестор, финансовые проекты, финансовые риски, эффективность проекта, бюджетная эффективность, борьба с коррупцией, финансовый контроль, государственные финансы.



KIRISH

Bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy soha tashkilotlari, ayniqsa, chekka hududlarda barcha qulayliklarga ega bolalar bog'chalari, maktablar tashkil qilinib, samarali faoliyat olib borayotganida ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada to'planib qolgan ko'plab muammolar yechimini topish, ularni bartaraf etishda davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy etish orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda. Hududlarda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil qilingan muassasalardagi xarajatlarning ma'lum bir qismi budjetdan subsidiyalar ajratish orqali qoplanishi, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega muassasalar tashkil qilish evaziga ham foyda olish imkoniyatini kengaytirib, joylardagi ijtimoiy muammolar yechilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat-xususiy sherikligi kooperativ kelishuvning bir ko'rinishi bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlat va xususiy sektor vakillarining investitsiya, infratuzilma, innovatsiya loyihalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, shuningdek, davlat ahamiyatiga molik dasturlardagi sheriklik munosabatlari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyot tarmoqlari, shuningdek, ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerakligi alohida ta'kidlab o'tildi [1].

Xususan, agentlik davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etishi, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va afzalliklarini baholash uslubini ishlab chiqishi, bu sohadagi loyihalarni amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlashi, loyihalar konsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirlik va idoralarga ko'maklashishi belgilab qo'yilmoqda.

Ushbu davlat-xususiy sheriklik tizimining shaffof va ochiq bo'lishi, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki korrupsion holatlarning oldini olish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va raqobat muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi - davlat-xususiy sheriklik tizimidagi shaffoflikni ta'minlash orqali loyihalar samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklikning (DXSH) iqtisodiy, institutsional va boshqaruv jihatlari borasida bir qator xorijlik va o'zbekistonlik olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ular tomonidan qator ilmiy ishlar chop etilgan. I.Boyer, S.Sshellpr, Irvin Erxard, David Batker, Ragnar Nurske, Pol Xartman, Jeff Ogden, Ross Jekson, Jeffri Delmon singari xorijlik olimlari davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va barqaror rivojlanishining nazariy asoslari bo'yicha ilmiy faoliyat olib borganlar [2].

Ko'pgina manbalarda keltirilishicha, davlat bilan xususiy biznes o'rtasidagi sheriklik turli yo'nalishdagi biznes-model va munosabatlardir. Tadqiqotlarda bu tushunchaga turli ta'riflar ham mavjud. Lekin, umuman olganda, bu tushuncha xususiy sektor resurslaridan umumjamiyat ehtiyojlarini qondirishda foydalanish ma'nosini anglatadi. YA'ni bunday hamkorlik doirasida xususiy va davlat resurslari hamda aktivlari birlashadi, vakolatlar taqsimlanadi, natijada bir tomonning kuch-salohiyati ikkinchi tomon uchun ham xizmat qiladi. Odatda har bir hamkor o'z investitsiyasiga mutanosib ravishda foyda ko'radi. Bunday xususiy biznes oddiy xususiy korxonadan davlat uchun xizmat ko'rsatish bilan farq qiladi. Masalan, xususiy korxonada o'z mablag'ini tavakkalchilik asosida jalb qilishi, davlat esa hech qanday xarajatsiz qo'shimcha daromad olishi yoki ortiqcha to'lovlarsiz biror-bir xizmatni yo'lga qo'yishi mumkin.

Amerikalik olim Ragnar Nurske (1953) tomonidan bildirilgan ishlab chiqarish salohiyatiga xizmat qiluvchi elementlardan tashkil topgan infrastruktura ta'siri oldindan belgilab qo'yildi, shuningdek, kichik tarmoqqa o'xshash bo'lgan infrastruktura aslida juda muhim ekanligi uni shakllantirishda eng DXSH amaliyoti muhim ekanligi ta'kidlagan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar S.G'ulomov, I.Iskandarov, U.Djumaniyazov, B.B.Berkinov, N.Oblomurodov, N.Maxmudov, O.Sobirov, A.Sattorov, N.Jumayev, B.Valiyev, A.Axmediyeva, Z.Tojiyeva va boshqalar davlat-xususiy sheriklik munosabatlari mavzularida ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar[3].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim N. Oblomurodovning (2018) tadqiqot ishlarida davlat-xususiy sherikchilik tamoyillari asosida yo'l qurilishi va transport infrastrukturasini, muqobil energiya manbalari, ijtimoiy obyektlar, shu jumladan, turizm infrastrukturasini obyektlarini qurilishi kabi ustuvor sohalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokida investitsion loyihalarni amalga oshirishni rag'batlantirish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan.

Jahon amaliyotida davlat-xususiy sherikligini amalga oshirish uchun turli xil modellar, shakllar, turlar va o'ziga xos imkoniyatlar mavjuddir. Davlat-xususiy sherikligi davlat budjetining eng katta xarajat turlaridan biri bo'lib, iqtisodiy samaradorlik, raqobat muhitini rivojlantirish va korrupsiyani kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.



Shu sababli, so'nggi yillarda ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ushbu sohani chuqur o'rganishga e'tibor qaratmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar Davlat-xususiy sheriklikda shaffoflikni ta'minlash masalasini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rgangan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida bu jarayonni mahalliy realliklarga moslashtirilgan tarzda takomillashtirish, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiyalash muhim ahamiyatga ega. Tizimli yondashuv, institutsional islohotlar va zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligi ushbu sohada kutilgan ijobiy natijalarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, solishtirma tahlil, indikatorlar asosida baholash usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bugungi globallashtirish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda prinsiplarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish talab etilmoqda. Umuman, tizim sifatida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) o'z rivojlanishida muayyan bosqichlardan o'tgan (1-rasm) [4].

DXSH rivojlanishi bosqichlari	
Birinchi bosqich	
-	Bozorning birlamchi doirasi shakllantiriladi va dastlabki tajriba to'planadi.
-	Mazkur bosqichda loyihalar kam miqdorda amalga oshiriladi
Ikkinchi bosqich	
-	DXSH tizimining moslashuvi va dastlabki «o'sish» yuz beradi
Uchinchi bosqich	
-	DXSHni qo'llash miqyosi sezilarli darajada kengayadi. Bu bilan ketma-ket ravishda institutsional baza (maxsus boshqaruvchi va tartibga soluvchi tashkilotlar), kapital bozorlari, moliyalash texnologiyalari va vositalari rivojlanadi

1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmining rivojlanish bosqichlari.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy munosabatlarini tahlil qilish, loyihalarda hal qiluvchi moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlash, to'g'ri prognozlashtirish muhim hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorlik qiymatining yuqori bo'lishi ko'p hollarda risklarning to'g'ri taqsimlanishiga, kapital bahosini minimallashtirilishiga, optimal kapital strukturasi tanlanishiga va kutilayotgan minimal daromadlilikni ta'minlanishiga bog'liq bo'ladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amaliyotga joriy etishda, eng avvalo, mukammal loyihalashtirish bosqichidan o'tishi hamda, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan modellashtirilgan holatda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash joizki, Yevropa bozorida DXSH loyihalari umumiy qiymatining 66 %ini (9,6 mlrd. yevro) 8 ta loyiha tashkil qildi (1-jadval).

№	Mamlakat	Loyiha nomi	Loyiha qiymati
1.	Turkiya	Chanakkale ko'prigi	3,1 mlrd. yevro
2.	Turkiya	Ankara-Nigde avtomagistrali	1,2 mlrd. yevro
3.	Fransiya	Jirondagi keng polosali foydalanish tarmog'i	1,2 mlrd. yevro
4.	Niderlandiya	Blankenburg tunneli	1 mlrd. yevro
5.	Niderlandiya	Rotterdamdagi A16 shossesi	930 mln. yevro
6.	Niderlandiya	Afsleytdeyk to'g'oni	810 mln. yevro
7.	Turkiya	Bilkent universitetidagi laboratoriya	711 mln. yevro
8.	Germaniya	Noyruppin-Pankov A10/A24 shossesi	652 mln. yevro



Davlat-xususiy sheriklik uchun transport sektori dunyo mamlakatlarida muhim sohalardan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoqda 2020 yilda amalga oshirilayotgan barcha loyihalarning umumiy qiymati 7 mlrd. yevroga teng bo'lgan. 2024-yilda esa ularning qiymati taxminan 8,2 mlrd. yevroni tashkil qilgan.

Mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklikni takomillashtirish va loyihalarning ko'lamini kengaytirish maqsadida turli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-sonli qarori 7-ilovasi bilan tasdiqlangan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2024–2026-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlariga ko'ra 2024-yil davomida davlat - xususiy sheriklik asosida 266 ta loyihalar ishlab chiqilishi belgilangan.

Davlat-xususiy sheriklik asosida mamlakat hududlaridagi loyihalar soni va ularning qiymat ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda tahlil qilingan (Jadval №2).

Jadval №1. Davlat-xususiy sheriklik asosida hududlardagi loyihalar soni va ularning qiymati ko'rsatkichlari.

T.r	Hududlar nomi	Loyiha soni	Loyiha qiymati trln. so'm
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	26	134,8
2.	Andijon viloyati	26	3,3
3.	Buxoro viloyati	13	48,4
4.	Jizzax viloyati	6	14
5.	Qashqadaryo viloyati	7	10,8
6.	Navoiy viloyati	7	19,9
7.	Namangan viloyati	14	7,1
8.	Samarqand viloyati	15	32,5
9.	Sirdaryo viloyati	62	25,6
10.	Surxondaryo viloyati	9	20,4
11.	Toshkent viloyati	18	21,4
12.	Farg'ona viloyati	26	2,1
13.	Xorazm viloyati	7	4,4
14.	Toshkent shahri	34	0,5

2024-yilda 345,2 trln so'mdan ortiq bo'lgan 270 ta loyihalarning ro'yxati shakllantirildi. Xususan, energetika sohasida qiymati 340,9 trln so'm bo'lgan 63 ta, transport sohasida qiymati 2,3 trln so'm bo'lgan 1 ta, ta'lim sohasida umumiy qiymati 1,5 trln so'm bo'lgan 62 ta, sog'liqni saqlash sohasida umumiy qiymati 97,9 mlrd so'm bo'lgan 11 ta, madaniyat sohasida umumiy qiymati 98,7 mlrd so'm bo'lgan 20 ta, sport sohasida umumiy qiymati 35,9 mlrd so'm bo'lgan 6 ta, qishloq xo'jaligi sohasida umumiy qiymati 0,8 mlrd so'm bo'lgan 5 ta, suv xo'jaligi sohasida umumiy qiymati 9,6 mlrd so'm bo'lgan 84 ta, hamda boshqa sohalarda umumiy qiymati 149,8 mlrd so'm bo'lgan 18 ta loyihalarni tashkil etadi.

2024-yil davomida vazirlik va idoralar bilan 270 ta DXSH loyihalari ustida quyidagi ishlar olib borildi. Jumladan:

- 329,6 trln so'm bo'lgan 251 ta loyihalarning DXSH to'g'risidagi bitimlarni DXSH loyihalari reyestriga kiritildi, shundan, 2024-yil davomida qiymati 1,7 mlrd so'm bo'lgan xususiy sheriklar bilan tuzilgan 5 ta DXSH to'g'risidagi bitimlar (suv xo'jaligida 4 ta, qishloq xo'jaligida 1 ta) bekor qilingan;

- 13,1 trln so'm bo'lgan 11 ta DXSH loyihalar bo'yicha xususiy sheriklar aniqlanib DXSH to'g'risidagi bitimlarni rasmiylashtirildi, DXSH to'g'risidagi bitimlarni DXSH loyihalari reyestriga kiritish bosqichi boshlandi;

- 45,4 mlrd so'm bo'lgan 5 ta DXSH loyihalar bo'yicha tender o'tkazilib, xususiy sherik aniqlandi. Bitimni imzolash bosqichi boshlandi;

- 2,4 trln so'm bo'lgan 3 ta DXSH loyihalarining tenderi e'lon qilindi

Shuningdek, DXSH loyihalari reyestriga kiritilgan 251 ta DXSH to'g'risidagi bitimlar energetika sohasida umumiy qiymati 328,0 trln so'm bo'lgan 61 ta, ta'lim sohasida umumiy qiymati 1,3 trln so'm bo'lgan 59 ta, madaniyat sohasida umumiy qiymati 97,2 mlrd so'm bo'lgan 19 ta, sport sohasida umumiy qiymati 19,9 mlrd so'm bo'lgan 3 ta, sog'liqni saqlash sohasida umumiy qiymati 34,4 mlrd so'm bo'lgan 5 ta, qishloq xo'jaligi



sohasida umumiy qiymati 0,8 mlrd so'm bo'lgan 5 ta, suv xo'jaligi sohasida umumiy qiymati 9,6 mlrd so'm bo'lgan 84 ta hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha umumiy qiymati 123,5 mlrd so'm bo'lgan 15 ta loyihani tashkil etadi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlilida qurilishning eng katta ulushi bino va inshootlarga 71,7 foiz to'g'ri kelsa, fuqarolik obyektlari 19,3 foiz va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 9 foizni tashkil etdi.

2024-yilda qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning ulushi 30,3 foiz, kichik korxon va mikrofirmalarning ulushi 46,2 foiz va yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 23,6 foizni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat-xususiy sheriklik tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali loyiha samaradorligini oshirish zamonaviy moliyaviy boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron tizimlarning joriy etilishi, jamoatchilik nazorati, qonunchilikning takomillashuvi va doimiy monitoring mexanizmlari nafaqat korrupsiyaviy xatarlarni kamaytiradi, balki budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-100-son Farmoni asosida davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini amalga oshirishning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish;

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini aniqlashda xalqaro standartlar asosida audit o'tkazishga qaratib, davlatning professional xulosa beruvchi va baholovchi audit organi sifatida qayta shakllantirish;

Ushbu maqsadda ilg'or xalqaro tajriba asosida auditning samaradorlik, muvofiqlik, moliyaviy, strategik va IT standartlari hamda ularni o'tkazish qo'llanmalari ishlab chiqish, idoraviy va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;

Raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida risk-tahlillar asosida masofaviy audit tadbirlarini nazorat qilishga qaratilgan "Davlat auditi" axborot tizimi yanada tizimlashtirish.

Ushbu yaratiladigan katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi Davlat-xususiy sheriklik loyihalariga budjet mablag'lari sarfining qonuniyligi, maqsadliligi va samaradorligini monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqildi:

Birinchiidan, Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarini sof joriy qiymatini ta'sir oraliqlarini hisobga olgan holda belgilash lozim va bu orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalari moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini ishonchlilik va samaradorlik doirasini belgilab olishga xizmat qiladi;

Ikkinchiidan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy investor uchun minimal daromadlilikni kafolatlash maqsadga muvofiqdir, chunki, minimal kutilayotgan daromadlilikni belgilash loyihalarning amalga oshirilishida albatta xususiy investor uchun turki bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchiidan, loyihaning sof joriy qiymatlarini turli xil ssenariylar asosida tahlil qilish va kutilayotgan sof joriy qiymatning o'zgarish darajasini belgilash va kutilayotgan daromadlilik darajalarini prognozlash, shu asosda xususiy investor uchun moliyaviy risklar darajasini kamayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://xs.uz/uzkr/post/>.
2. Boyer & Scheller - An Examination of State-Level Public-Private Partnership Adoption: Analyzing Economic, Political, and Demand-Related Determinants of PPPs – Sage journals - 2018.
3. Berkinov B.B. Nedelkina N.I., Axmedov U.Q. O'zbekistonning infratuzilmaviy sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalariga investitsiyalar jalb etish. – T.: Fan va texnologiya, 2019 y., 189 bet.
4. Турсунов Имомназар Эгамбердиевич, Хамроев Гайратжон Султонович ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО КАК МОДЕЛЬ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА // ELS. 2024. №сентябрь 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvenno-chastnoe-partnyorstvo-kak-model-innovatsionnogo-razvitiya-predprinimatelstva>.
5. Турсунов Имомназар Эгамбердиевич, Хамроев Гайратжон Султонович, Абдиназаров Хусан Шайманович ПЕРСПЕКТИВЫ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В РЕАЛИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ // ELS. 2024. №30 ноябрь 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-mehanizmov-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva-v-realizatsii-innovatsionnyh-proektov> (дата обращения: 13.07.2025).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
